



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 4-dekabr

VII-18-201-4-0-K/25

Qashqadaryo viloyati

Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyul kunidagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to’g’risida”gi O‘RQ-784-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6074-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 23-oktabrdagi 274-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 22-oktabrdagi 01-20-10/05-38/2686-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori O.Omonovning Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) yuzasidan hisoboti va takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025 yil 25-apreldagi “Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) to’g’risida”gi VII-10-70-4-0-K/25-sonli qarori o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini ta’minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov va viloyat hokimining o’rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o’n besh kun o’tgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Kengash raisi



**XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA**

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 4-dekabrdagi
VII-18-201-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” MCHJ tomonidan
Nuriston shaharchasida joylashgan aholi, budjet va ulgurji tashkilotlar
uchun taklif etilgan 1 m³ ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari
(tariflari)**

T/R	Xizmat turlari	Istemol turi	O'lchov birligi	Amaldagi narxi QQS siz (so'mda)	Yangi narx QQS siz (so'mda)
1.	Ichimlik suvi	aholi iste'molchilariga	1 m ³	1 700	1 900
		budjet tashkilotlariga	1 m ³	3 500	4 500
		ulgurji iste'molchilariga	1 m ³	6 000	7 200
2.	Oqova suv	aholi iste'molchilariga	1 m ³	1 000	1 100
		budjet tashkilotlariga	1 m ³	1 500	2 000
		ulgurji iste'molchilariga	1 m ³	2 500	5 800